

ABU NASR FAROBIYNING “FOZIL ODAMLAR SHAHRI” ASARIDAGI
IJTIMOIY-FALSAFIY YONDASHUVI

Esonov Fazliddin Dushayevich

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abu Nasr Farobiyning eng katta asari “Fozil odamlar shahri” asaridagi ijtimoiy va falsafiy qarashlar hamda yondashuvlar haqida soʻz boradi.

Kalit soʻzlar: Maʼnaviyat, qadriyat, “Fozil odamlar shahri” tarbiya, axloq, kamolot, ahamiyat.

Mamlakatimizda hozirgi kunda barcha sohalarda tubdan oʻzgarishlar boʻlmoqda. Buning asosiy sababi Respublikamiz Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning davlatimizda barcha sohalarni rivojlantirishga katta eʼtibor qaratmoqda. Bu eʼtiborning amaliy ahamiyatini sohalardagi oʻzgarishlar orqali koʻrishimiz mumkin. Mana shu sohalardan biri taʼlim yoʻnalishida ham Prezidentimiz tomonidan juda koʻplab ishlar olib borilmoqda. Bu islohotlarning koʻrinishini quyidagi asoslarda uchratishimiz mumkin. 2022 — 2026-yillarga moʻljallangan yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida 2020-yil 23- sentyabrdagi yangi tahriridagi “Taʼlim toʻgʻrisida”gi qonunda va boshqa qarorlarda oʻz aksini topgan. Taʼlim toʻgʻrisidagi qonunning 5-moddasida taʼlim tashkilotlarida, innovatsion faoliyatni qoʻllab-quvvatlash va oʻquv dasturlarini innovatsion texnologiyalarini qoʻllagan holda amalga oshirish, taʼlim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflikni taʼminlash haqidagi fikrlarni taʼminlash haqidagi fikrlar berilgan. Demak, mana shu qaror va qonunlar mazmunidan shuni tushunish mumkinki, yoshlarimizning ham taʼlimiy, ham maʼnaviy-axloqiy jihatdan yetuk boʻlishlari muhim hisoblanadi. Ushbu qonunning 4 - moddasida quyidagi bndlari ham oʻquvchilarning maʼnaviy axloqiy jihatdan komil inson boʻlib yetishishiga xizmat qiladigan fikrlar berilgan;

- taʼlim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi;

-taʼlim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyatlar kabi asosiy prinsiplari koʻrsatib oʻtilgan.

Bugungi kunda oʻquvchilarning maʼnaviy-axloqiy sifatlarini buyuk adib va allomalarimizning pedagogik qarashlarida, asarlarida va asarlaridagi koʻrsatilgan namunalar orqali shakllantrishini muhim hisoblanadi. Jumladan, buyuk pedagog olimimiz Abu Nasr Farobiyning pedagogik qarashlarida va aynan “Fozil odamlar shahri” asarida bugungi yoshlarimizning axloqiy jihatdan yetuk boʻlishiga doir yetakchi fikrlar berilgan. Farobiyning asarlari bugungi kun oʻquvchilarimizning axloqan tarbiyasi va odobli boʻlishida bir qancha fikrlar, hikmatli iboralar, shery matnlar, hikoyalar hamda ibratli hayotiy tajribalarga asoslangan matnlar berilgan. Ushbu fikrlarni tahlil etishimizdan oldin olimning hayoti va ijodi haqida qisqacha maʼlumotga ega boʻlishimiz lozim.

Abu Nasr Forobiy Oʻror shahrida (hozirgi Qozogʻistonning Chimkent viloyati hududida joylashgan shahar) 256-257 hijriy sanada tugʻilgan. Yosh va zehni oʻtkir Abu Nasr ilmga erta qiziqdi, arab, fors tilarini mukammal darajada oʻzlashtirdi. Forobiy sanskrit (qadimiy hind tili) tilini oʻrgandi va uni yaxshi bilardi. Oʻzi turkiy xalqlarga mansub boʻlib ona tilini yaxshi bilar va yoshligida turli tillarni va ilmlarni puhta egallagan edi. U koʻproq Bagʻdodda yashagan. Arab tilini juda ham yaxshi bilar edi. Xususan, ushbu davrning yetuk tabiatshunos faylasuflaridan biri sifatida Farobiyning alohida tilga olish lozim. Jumladan, S.Andaluziyaning yozishicha: «Barcha ilmlarni quyidagi sakkiz nom ostida tasnif kiladi: ilmu lugʻat (filologiya), mantiqiyot (logika), riyoziyot (matematika), tabiat (tabiatshunoslik), ilohiyot,

siyosat (siyosatshunoslik), fiqh (islom huquqi) va kalom»10. Shu bilan bir qatorda, uning tabiatshunoslikka oid qarashlari matematikaga oid qarashlari asosida ochib berilganligini ta'kidlash mumkin. U ko'proq falsafa, mantiq va diniy ilmlarga qiziqar edi. Forbiy turli ilmlarni ya'ni falsafa, mantiq, ilohiyot, axloq, siyosat, falakiyot, kimyo, musiqa va boshqa ilmlarga oid o'nlab kitoblarni yozgan.

Forbiyning musiqa bo'yicha yozgan kitobi islom madaniyatida yozilgan eng asosiy arabcha kitob bo'lib hozirgacha asosiy manbalardan bo'lib kelmoqda. U «Qonun» nomli musiqa asbobini ixtiro qilgan. Forbiyning kitoblari ikki turga taqsimlanadi. Birinchisi talim, tarbiya, falsafa va boshqa sohalarda yozgan kitoblari. Ikkinchisi Aflotun, Arastu va ularga ergashganlarning kitoblariga yozgan sharhlari. Ba'zi tadqiqotchilar mazkur kitoblarning soni qirq donaga etganini aytadilar. Forbiy o'zining ta'lim tarbiya faoliyatida Aflotun va Arastu hamda yunon falsafasi va Islom dini orasida muvofiqlashtirishga qattiq uringan. Uning o'zi dinini mahkam tutadigan musulmon bo'lgan. Shu bilan birga, u Aflotun va Arastu mazhabiga o'xshash falsafiy mazhabga asos solgan birinchi musulmon faylasufdir. O'sha paytda Aflotunning «at-Tosu'ot» nomli kitobi tarjima qilinib hato tariqasida Arastuning kitobi deb bilingan edi. Arabchada «Rububiyat» nomi bilan mashhur bo'lgan bu kitobni o'qigan Forbiy Arastuning fikrlari xuddi Aflotunnikiga o'xshash ekanligiga hujjat va dalil topilganidan hursand bo'lgan va mazkur ikki faylasufning boshqa kitoblarini ham muvofiqlashtirish uchun harakat qilgan. Forbiy ham Aflotunni, ham Arastuni bir hilda yaxshi ko'rar va qadrlar edi. Shu bilan birga bu ikki shaxsning fikrlari bir biriga zid bo'lishini tasavvur qila olmas edi. Uning «alJam'u bayna ra'yay al-hakimayni Aflotun al-Ilohiy va Arastutolis» - Ikki hakim - Aflotun ilohiy Arastularning fikrlarni jamlash deb atalgan kitob Forbiyning bu borada olib borgan hakatining gultoji hisoblanadi.

"Ta'lim degan so'z insonga o'qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish ; ma'lum birhunarni egallash uchun zarur bo'lgan amaliy malakalar",- deydi olim. Forbiyning ta'limtarbiya haqidagi qarashlarida insonparvarlik g'oyalari alohida o'rin tutadi. Forbiyning ta'kidlashicha, tarbiyalanuvchi ixtiyoriy ravishda zaruriy, aqliy va axloqiy xislatlarni bilimli bo'lishga, to'g'rilik va haqiqatni sevishga, jasur, do'stlarga sadoqatli bo'lish singari fazilatlarini egallashga intilmog'i lozim. Abu Nasr Forbiy insonga xos hamda uning ma'naviy yuksalishida muhim ahamiyat kasb etuvchi tafakkur va nutqning rivojlanishini ta'limtarbiyaning asosini tashkil etuvchi muhim jarayon hisoblaydi.

Farobiyning "Fozil odamlar shahri" asari axloqiy va ta'limiy xarakterga ega. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Kaykoviskining "Qobusnoma", Amir Temurning "Temur tuzuklari", Alisher Navoiyning "Mahbub-ul qulub" kabi asarlari tarzida o'ziga hos asarlaridan biri hisoblanadi. Har kimki ilm hikmatini o'rganmagan desa, uni yoshligidan boshlasin, sog'-salomatligi yaxshi bo'lsin, yaxshi ahloq va odobi bo'lsin, so'zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlangan bo'lsin, barcha qonunqoidalrni bilsin, bilimdon va notiq bo'lsin, ilmi va dono kishilarini hurmat qilsin, ilm va ahli ilmdan mol-dunyasini ayamasin, barcha aniq moddiy narsalar to'g'risida bilimga ega bo'lsin. Farobiy qalamiga oid ushbu fikrni biz pedagoglar o'quvchilarga to'g'ri yetkaza olishimiz kerak.

Forbiyning yozishicha, haqiqiy baxtga erishish uchun harakat qiluvchi, o'zaro yordam qiluvchi, xalqini birlashtirgan shahar — fozil shahar hisoblanadi. Baxtga erishish maqsadida o'zaro yordam bergan va birlashgan kishilar fazilatli jamoa bo'ladi. Forbiy fikriga ko'ra, davlatni idora etuvchi shaxs o'zining fazilat va xulq-odobi bilan ajralib turishi, xususan u 6 ta xislatni egallagan bo'lishi, ya'ni adolatli va dono bo'lishi, boshqalarga g'amxo'rlik qilishi, qonunlarga to'la rioya etishi va qonunlarni yarata olishi, kelgusini oldindan ko'ra bilishi kerak. Forbiyning talqinicha, fozil shaharlar yuqori madaniyatli bo'ladi. Unda yashaydigan xalq

o'zi istagan kasb-hunarni egallaydi. Bunday jamiyatda to'la erkinlik va teng huquqlik hukm suradi. Forobiyning fozil jamoa haqidagi ta'limoti uning axloqiy kamolot va baxt saodatga erishuv hamda insonparvarlik g'oyalari bilan chambarchas bog'liqdir. U o'zining ijtimoiy-falsafiy, siyosiy va axloqiy qarashlari markaziga insonni, uning maqsad muddolarini o'rganishni, axloqiy kamolot va baxt-saodatga erishuv yo'llarini ko'rsatishni qo'yadi. Axloqiy kamolot deganda, xayr-ehsonli ishlar, go'zal insoniy fazilatlarni tushunadi. Axloqiy kamolotga xalaqit bembvchi salbiy xislatlarga dangasalik, bekorchilik, bilimsizlik, ongsizlik, kasb- hunarsizlikni kiritadi. Forobiy aql, ilm va ma'rifatni baxtsaodatga erishishning asosiy vositasi deb biladi. Forobiy inson fazilatlarini tug'ma va yashash jarayonida paydo bo'ladigan fazilatlarga bo'ladi. Olimning fikricha, tug'ma fazilatlarga insonning o'ta o'tkir zehniligi, biror narsani bilishga o'ta qobiliyatligi kiradi. Lekin tug'ma fazilatlar hayotda kam uchraydi. Asosiy axloqiy fazilatlarni odam yashash davomida egallaydi. Tug'ma fazilatli odamlar ham tarbiyaga muhtoj. Agar unday odamni tarbiyalab va to'g'ri yo'lga solib turilmasa, uning qobiliyati tezda so'nib qolishi mumkin. Tug'ma qobiliyat ham nisbiy tushunchadir. Ba'zi kishilar tug'ma qobiliyatini ishga solib yaxshi natijaga erishsa, boshqalari yomon natijaga erishadi.

Farobiy axloqiy fazilatlarni qanday o'zlashtirish mumkinligini tushuntiradi. Bunday yaxshi odatlar vaqtincha o'zgargan bo'ladi, chunki jamiyatlar va barcha odamlarda odatlar uzoq muddat o'tib o'zgartiriladi. Adolatli, pok, jasur bo'lishga odat qilish, shu bilan birga, yomon qiliqlardan qutulish uchun ham ma'lum muddat o'tishi kerak. Bu vaqt davomida inson o'zining yomon qiliqlaridan voz kecha oladi. Agar odamda tug'ma, kuchli g'urur tuyg'ulari bo'lmasa, u holda o'sha odam o'z ruhini mashq ila tarbiyalashi zarur, chunki o'zi sevgan insonning ko'p jinoyatlarini sezmaslik odamning tug'ma xislatidir. Zero shunday ekan, shahvoniy xohishlarga erk bermaslik uchun albatta, kuchli g'urur bo'lishi kerak. Insonni halokatga olib boradigan narsalarni ruhiga ravo ko'rmaslik uchun bunday hollarda g'azabdan ham ijobiy foydalana bilish va ruhni doimo o'zidan ko'ngli to'lmaslikka o'rgatish kerak. Aflotun aytadiki, tarbiyali odamlar o'z ruhlarini doimo quvonish, ortiqcha kulish, qattiq xafa bo'lish, ortiqcha kayg'urish kabi holatlarda mo'tadillik doirasidan chiqmaslikka majbur qila olishlari kerak. Aflotunning aytishicha, odamlar ma'naviy fazilatlarga erishishni istab, iltijo qilib, ularni o'zlashtirishga e'tibor berishlari kerak, toki axloq qonuniy, maqtovlarga sazovor va ilohiy bo'lib qolsin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi pf-60- son.
2. Xayrullayev M.M Farobiy va uning falsafiy risolalari. Toshkent 1963
3. Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida.- Toshkent, Yozuvchi, 2001.
4. Xayrullayev M. Uyg'onish davri va Sharq mutafakkiri. 1971